



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI  
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI



**FAN:**

**Mashinalardan foydalanish va  
texnik servis**

**MAVZU:  
№ 11**

**TEXNIKALARGA KO'RSATILAYTGAN TEXNIK  
SERVIS SIFATINI BOSHQARISH**



**SHARIPOV ZAYNIDDIN SHARIPOVICH**

**Muhandislik tizimlarini boshqarish  
kafedrasi dotsenti, t.f.n.**



## **11-M. Texnikalarga ko'rsatilayotgan texnik servis sifatini boshqarish.**

### **REJA:**

- 1. Sifat ko'rsatkichlarining turlari;**
- 2. Mahsulotning sifatini nazorat qilish turlari va servis korxonalarining xizmatlari;**
- 3. Mahsulot va xizmatlar sifatining ta'minlash;**
- 4. Sifatning barqarorligiga erishish usullari.**

**Sifat deganda** – ko‘rsatilayotgan xizmatlarni xarakteristikasi va xususiyati tushuniladi, o‘rnatilgan ehtiyojning qoniqarli ta‘minlaydi.

Har bir bajariladigan xizmat turiga qarab sifat ko‘rsatkichlari turli xil bo‘ladi.

**Texnikalar uchun qo‘yidagi sifat ko‘rsatkichlari mavjud:**

**1.Belgilangan ko‘rsatkichlari** - ob'ektni xususiyatlarini xarakterlaydi, bajariladigan ish uchun uning asosiy funksiyasini aniqlaydi. Masalan: **traktorlar uchun** – dvigatelni quvvati va tortish quvvati, **avtomobillar uchun** – tezlik va yuk ko‘tarishi.



**2. Puxtalik ko'rsatkichlari** – texnikalardan foydalanish jarayonida uning ishlash qobiliyatini saqlab turish va qayta tiklashni xarakterlaydi.

**3. Texnologik ko'rsatkichlari** - bu mashinalar konstruksiyasini mashinalarni tayyorlashda va undan foydalanishga moslashganligini xarakterlaydi.

**Texnologik ko'rsatkichlar** – bular birinchidan texnikalarni tayyorlashda – ishlab chiqarish texnologik ko'rsatkichi deyiladi; ikkinchidan – TXK, TS va ta'mirga moslashganligi – foydalanishdagi (ekspluatasion) texnologik ko'rsatkichlar deyiladi.

**4.Transportabellik ko‘rsatkichlari** – bu texnikalarning transportirovka qilishda (bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirishda) moslashganligini xarakterlaydi.

**5.Standartlashtirish va unifikasiyalash ko‘rsatkichlari** – bu ob'ektni standartlar, unifikasiyalashgan va original qismlar (detallar) bilan ta'minlanganligini, hamda boshqa mahsulotlar bilan unifikasiyalash darajasini xarakterlaydi.

**6.Xavfsizlik ko‘rsatkichlari** – bu texnikalardan foydalanishdagi ularga xizmat ko‘rsatadigan xodimlarning xavfsizligini ta'minlar uchun ob'ektni konstruksiyasini xususiyatlarini xarakterlaydi.

**7.Ergonomiq ko‘rsatqichlari** – bu aniq bir texnikadan foydalanish jarayonida xodimlarga yaratilgan qo‘layliklarni va sharoitlarni xarakterlaydi.

**8.Ekologik ko‘rsatkichlar** – bu oqavo suvlarning tabiatga ta'sirini, zararli gazlarni atmosferaga tarqalishini, suv havzalari, daryolar va tuproqdagi ta'sirini ruxsat etiladigan normadan oshmasligini xarakterlaydi.

**9.Estetik ko‘rsatkichlar** – bu formasining to‘g‘riligini, chiroyligini, kompozitsiyasini yaxlitligini va mahsulotning ishlab chiqarish jarayonini mukammal bajarilganligini xarakterlaydi.



**10. Patent-huquqiy ko'rsatkich lari**  
– bu aniq ob'ekt uchun qo'llanilgan texnik yechimning yangilanganlik darajasini xarak terlaydi, ularning patentlanganligini himoya qiladi.

**Ulardan eng asosiysi** – patent himoyasi va patent tozaligi.



## **2.Servis korxonalarida xizmatlar va mahsulot nazoratining turlari:**

**Texnik nazorat** – bu mahsulot sifatining boshqarish tizimini eng muhim elementlaridan biri hisoblanadi.

**Uning asosiy maqsadi** – normativ – texnik xujjatlar talablariga mos kelmaydigan mahsulotlarni ishlab chiqarishni taqiqlashdir.

O‘tkaziladigan nazoratning sifati va unumliligi asosan nazorat ishlarini tashkil qilishga bog‘liq.

**Korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sifatini nazorat qilish quyidagi turlarga bo‘linadi:**

**1. Texnologik jarayonlar bosqichida** – kirish, operatsiyalarni bajarishda, qabul qilishda va tekshirish kelganda;

**2. Qamrash darajasi** – yoppasiga va tanlab olish orqali;

**3. O‘tkazish vaqti** – uchma, tuxtovsiz va davriy.

**Chiqish nazorati** – bu iste'molchiga yoki buyurtmachiga yuboriladigan mahsulotning nazorat qilish. Bunday nazorat ehtiyot qismlar, materiallar va jamlovchi buyumlarda o'tkaziladi.

**Operasion nazorat** – bu nazorat mahsulotlar yoki xizmatlar, yoki texnologik operasiyalarni bajarish vaqtida yoki yakunlanganidan keyin o'tkaziladi.

**Qabul qilish nazorati** – bu mahsulotning ishlatishga yaroqligi to‘g‘risida xulosa qabul qilish nazorati.

**Inspeksion nazorat** – bu bajarilgan nazoratni unumdorligini tekshirish maqsadida maxsus xodimlar tomonidan o‘tkaziladigan nazorat.

**Barchasini nazorat qilish** – bu ishlab chiqarilayotgan mahsulotning har birini alohida nazorat qilishdir.



**Tanlab nazorat o'tkazish** – ishlab chiqarilgan mahsulotning bir donasi yoki bir necha donasini tekshirib, olingan natijalariga ko'ra mahsulotning sifati-ni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan nazorat.

**Uchma nazorat** – nazorat qilinayotgan parametrlar to'g'risidagi ma'lumotlar o'rnatilgan vaqt oraligi bo'yicha olinadi.

**Tuxtovsiz nazorat** - bu nazoratda nazorat qilinayotgan parametrlar to'g'risida ma'lumotlar tuxtovsiz olinadi.

**Davriy nazorat** – bu nazoratda nazorat qilinadigan parametrlar to'g'risidagi ma'lumotlar o'rnatilgan vaqt intervallari oralig'ida olinadi.

## **Sifatning barqarorligiga qo‘yidagi usullar bilan erishiladi:**

**-Davriy ravishda uskuna va qurilmalarni texnologik aniqligini tekshirib turish va bu uskunalarni o‘z vaqtida ta'mirlash ishlarini bajarish;**

**-texnologik tartibni ta'minlash va saqlab turish;**

**-mahsulotlar va xizmatlar sifatini davriy ravishda baholash.**

**Sifatning muqimligiga uskunalarning doimiy nazorat qilib turish orqali erishish mumkin.**

**Uskunalarning texnologik aniqliklarining tekshirishga bazali, aniq, alohida va yakuniy operatsiyalarning bajaradigan barcha uskunalari kiradi.**

**Olingan tekshirish natijalari bo'yicha uskunalarning texnologik aniqligi talabga javob bermasa yoki ularning joyida sozlash (regulirovka) qilish orqali qayta tiklash imkoni bo'lmasa, bu uskuna ta'mirlashga yuboriladi.**





**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI  
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**



**E'TIBORINGIZ UCHUN RAXMAT!**



**SHARIPOV ZAYNIDDIN  
SHARIPOVICH**



“Muhandislik tizimlarini  
boshqarish” kafedrası  
dotsenti. t.f.n.

 + 998 71 237 05 86

 [Z.Sharipov @tiame.uz](mailto:Z.Sharipov@tiame.uz)

 Zayniddin Sharipov